

SUR RANGLI QO‘YLARNI URCHITISH XUSUSIYATLARI

Nazarova Mohira Azamatovna,
Mamasoliyev Hoshimjon Mamadali o‘g‘li

ANNOTATSIYA

Maqolada qorako‘l qo‘zilarni ranggi va rangbarangligini asosiy ko‘rsatkichi sifati, gullarning tipi va shakli, ularning sifatini belgilovchi bir uzunligi, kengligi, mustahkamligi, qo‘zi terisi sathida joylashish rasmini turli qimmatlik ko‘rsatkichlar har xil tipli qorako‘l qo‘ylari bilan taqqoslanganli to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Gul tipi, yassi, qovurg‘asimon, yarim doira, qorako‘l qo‘zilari, qalamgul.

Klyuchevie slova. Ploskiy, yagnyat, polukrugley, rebristey, kavkazskiy.

Qorako‘l qo‘ylarini seleksiyalash va urchitishda, ularning ranggi va rangbarangligini asosiy ko‘rsatkich sifatida zotning aniqlovchi belgilari hisoblangan gullarning tipi va shakli, ularning sifatini belgilovchi bir qator ko‘rsatkichlari–uzunligi, kengligi (eni), mustahkamligi, qo‘zi terisi sathida joylashish rasmini turli qimmatlikka ega bo‘lgan gullarning teri sathidagi salmog‘i birinchi navbatda e‘tiborga olinishimiz.

Keyingi kategoriya ko‘rsatkichlari qatoriga jun–tola qoplaminig sifatii (yaltiroqligi, ipaksimonligi, pigmentlanish jadalligi) va miqdoriy (uzunligi, ingichkaligi) seleksion belgilari kiradi.

Rangli qorako‘l qo‘ylarida, xususan sur rangli qorako‘l qo‘ylarida ularning nasliy va irsiy xususiyatlarini baholashda rang va rangbaranglik ko‘rsatkichlariga (rangbaranglik, rangning ifodalanishi, jun tolalari ostki pigmentlangan qismida uchki turli darajada pigmentsizlangan qismiga o‘tish keskinligi, jun tolasii umumii uzunligiga nisbatan uchki depigmentlangan qisminig uzunligi, tekisligi va boshqalar) muhim e‘tibor qaratiladi.

Urchitishda shu bilan bir qatorda teri qoplaminig qalin–yupqaligi, pishiqligi, qo‘zilarning konstitutsional, o‘shii va rivojlanish ko‘rsatkichlarini ham inobatga olish ahamiyatli hisoblanadi.

Qayd etilgan guruh ko‘rsatkichlari qo‘zilarni kompleks baholash asosida qo‘zilarning irsiy, nasliy va mahsuldorligi va ulardan kelgusi seleksiya va urchitish ishlarini olib borishda foydalanish yo‘nalishlari aniqlanadi.

Ma'lumki, qorako'l qo'ylari tug'ilganda qorako'l gullarining tipi va shaklliga ko'ra to'rtta gul tipiga (yarim doira qalamgul, qovurg'asimon, yassi va o'sikgul) ajratilib, shulardan o'siqgul tipi kam qimmatli, qolganlari qimmatli tiplar hisoblanadi.

Har bir gul tipiga mansub bo'lgan qo'ylar belgilarning namoyon bo'lishi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarga egaki, bu xususiyatlarni ularni urchitish va seleksiyalashda hisobga olish lozim bo'ladi. Tiplarga mansubligiga qarab ba'zi seleksion belgilarning avlodlarga berilishi ma'lum farqlanishlarga ega. SHu nuqtai nazardan ushbu o'ziga xos xususiyatlar bo'yicha qo'ylarni urchitish va shu asosda ularning salohiyatidan samarali foydalanishda mos keluvchi tanlash va juftlash usullarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu erda aytish o'rinliki, umuman qorako'l qo'ylarini urchitish va seleksiyalash bo'yicha etarli darajada tadqiqot ishlari bajarilgan. Lekin uning muhim va qimmatli tiplaridan biri bo'lgan yassi tipli qo'ylarda olib borilgan tadqiqot ishlari etarli emas, uning irsiy salohiyatini yuqori darajada yuzaga chiqarish imkonini beruvchi usullar va echimlar kam.

Gul tiplarining naslga berilishi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha qo'ylarni seleksiyalash o'tgan asrning 60-yillaridan boshlangan. Gul tiplarining naslga berilishi to'g'risidagi ma'lumotlar M.N.Dyachkov (1960) tomonidan keltirilgan. Ushbu muallifning ma'lumotlarida jaket va boshqa tipli qo'ylarni juftlash natijalari keltirilib, ularni tiplar bo'yicha urchitish imkoniyatlari, turli tipli qo'ylarning maqsadga muvofiq tomonlari va kamchiliklari baholangan.

Tadqiqotlarimizda sur rangli yassi tipli qo'ylarning gul tipi bo'yicha irsiyatini o'rganish yo'nalishida izlanishlar olib borildi. Ma'lumotlar 1- jadvalda umumlashtirilgan.

Olingan ma'lumotlar ko'rsatadiki, yassi tipli qo'chqorlardan foydalanib qo'ylarni urchitish ishlarini olib borish avlodlarda ushbu

1-jadval

Juftlash variantlari bo'yicha avlodlarning gul tiplariga taqsimlanishi

Juftlash varianti	n	Avlodlarning gul tiplari, % ($\bar{X} \pm S\bar{x}$)			
		yassi	Yarim doira qalamgul	Qovurg'a simon	O'sikgul
Yassi x Yassi	125	53,2±4,48	15,3±3,41 ^x	22,4±3,71 ^x	7,0±1,86 ^x
Yassi x Yarim doira qalamgul	120	43,4±4,54	27,8±4,12 ^x	15,9±3,37 ^x	12,6±3,08 ^x
Yassi x Qovurg'asimon	86	40,6±4,22	22,1±4,45 ^x	34,5±5,11 ^x	3,6±12,05 ^x
Yassi x O'siqgul	48	32,0±6,1	46,0±3,8	6,2±2,0	16,0±6,0

X-R<0,05; X) - R<0,001 tipga mansub qo'zilar salmog'ini ko'paytiradi. Bunday avlodlar chiqimi "yassi x yassi" juftlash variantida eng yuqori bo'lib (53,2±4,48%),

qolgan variantlarda mutanosib ravishda $43,4 \pm 4,54$ va $40,6 \pm 5,22$ foizni tashkil etadi. Yarim doira qalamgul va qovurg'asimon tipli qo'zilar chiqimi juftlashda qaysi tipli qo'ylarning ishtirok etishi bilan bog'liq holda o'zgaradi. Yarim doira qalamgul tipli qo'ylar qatnashganda yarim doira qalamgul tipli ($27,8 \pm 4,12$), qovurg'asimon tipli qo'ylar qatnashganda shu tipli ($34,5 \pm 5,11$) qo'zilar salmog'ining ma'lum darajada ko'payishi kuzatiladi.

Olingan malumotlarni keltirish barobarida ta'kidlash lozimki, yassi tipli qo'chqorlardan foydalanish asosida urchitish barcha holatlarda, shu tipli avlodlar chiqimining statistik ishonchli ($R < 0,05$; $0,001$) ravishda yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Ma'lumki, qorako'l qo'ylarining tug'ilganda baholangan gul ko'rsatkichlarining naslga berilishi poligen xarakterga ega bo'lib, ularning naslga berilishi genotipik faktorlar bilan bir qatorda tashqi muhitning hisobga olinishi qiyin bo'lgan ta'siriga ham ma'lum darajada bog'liq. SHu nuqtai nazardan aytish mumkinki, qorako'l qo'ylarini urchitishda ko'p bora gomogen juftlash usulini qo'llash ham avlodlarda belgilar namoyon bo'lishini ma'lum darajada ko'paytirishi mumkin, lekin maksimal darajaga etkazmaydi, ular orasida har bir belgi bo'yicha turlicha taqsimlanish holati kuzatiladi.

Gullarning uzunligi. Qorako'l qo'ylari seleksiyasida gullarning uzunligi muhim o'rin tutuvchi belgi bo'lib, uning uzun bo'lishi qorako'l terining chiroyli va rasmining aniq bo'lishini ta'minlaydi. Ko'pchilik tadqiqotlarda aniqlanganki, qovurg'asimon va yassi gul tiplariga mansub qo'zilar uzun gullar bilan xarakterlanadi. SHu nuqtaiy nazardan ushbu tipdagi qo'ylardan seleksiya jarayonida foydalanish samarali hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, teri sathidagi gullarning bir xil tipli bo'lishi olinadigan avlodlarda gullarning uzun bo'lishiga olib keladi.

Tadqiqotlarda yassi tipli qo'ylarni urchitish sharoitida avlodlarning gul uzunligi bo'yicha taqsimlanish darajalari o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

Avlodlarning gul uzunligi bo'yicha taqsimlanishi

Juftlash varianti	n	Avlodlarning gul uzunligi bo'yicha taqsimlanishi, % ($\bar{X} \pm S\bar{X}$)		
		uzun	o'rta	kalta
Yassi x Yassi	123	$53,7 \pm 4,50$	$36,5 \pm 4,34^x$	$9,8 \pm 2,68^x$
Yassi x Yarim doira qalamgul	118	$41,5 \pm 4,55$	$44,1 \pm 4,57$	$14,4 \pm 3,23^x$
Yassi x Qovurg'asimon	87	$56,3 \pm 5,32$	$34,5 \pm 5,10^x$	$9,2 \pm 3,10^x$
Yassi x O'sikgul	50	$12,0 \pm 6,0$	$66,0 \pm 6,0$	$22,0 \pm 4,0$

Natijalar umumlashtirilgan 2-jadval ma'lumotlari ilgari bajarilgan tadqiqotlarning natijalarini tasdiqlaydiki, yassi tipli qo'ylardan urchitish jarayonida foydalanish uzun gulli qo'zilar salmog'ining ortishiga olib keladi.

Urchitish jarayonida juftlangan qo'ylarning gul tipiga bog'liq holda yassi tipli qo'chqorlardan foydalanish avlodlarda uzun gulli qo'zilar salmog'ini 41,5-56,3 foizgacha etkazish, kalta gulli qo'zilar salmog'ini 9,2-9,8 foizgacha kamaytirish imkonini berishi aniqlandi, o'rta uzunlikdagi qo'zilar salmog'i esa 34,5-41,1 foiz darajasida qayd etildi. Olib borilgan tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki, barcha holatlarda yassi tipli qo'ylardan foydalanish uzun gulli avlodlar chiqimi bo'yicha kalta gulli avlodlar chiqimi ko'rsatkichidan statistik ($R < 0,001$) ishonchli ravishda yuqori natija olishni ta'minlaydiki, ushbu holatdan seleksiya jarayonida foydalanish samarali hisoblanadi.

Gullarning kengligi (eni). Muhim seleksion ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkich bo'lib, zotdorlikni belgilovchi belgilar qatoriga kiradi. Uning kattaligi teri sathidagi gullarning tip va shakllariga bog'liq holda sezilarli o'zgaruvchanlikka ega bo'ladi. Yarim doira qalamgullar va dona gullar asosan o'rta o'lchamga, qisman mayda va katta o'lchamga, yassi hamda qovurg'asimon qalam gullar va yolgullar o'rta va katta o'lchamga egaligi bilan xarakterlanadi.

Qorako'l gullari sur rangli qo'zilar kengligi bo'yicha 3 guruhga– mayda (5 mm gacha), o'rta (5-9 mm) va katta (9 mm dan yuqori) gullarga ajratiladi.

Seleksion ahamiyati jihatidan o'rta kenglikdagi gullar qimmatli hisoblanadi. Ushbu kenglik diapazoniga ega qo'ylarning seleksion, qorako'l terilarining tovarlik xususiyatli yuqori baholanadi.

Ushbu xususiyatga ko'p asrlar davomida olib borilgan seleksiya va maqsadli urchitish ishlari uning qo'ylarda irsiy mustahkamlanishiga olib kelgan. SHu bilan bir qatorda kuzatildiki, "yassi x yassi" va "yassi x qovurg'asimon" juftlash variantlarida qo'zilarning sezilarsiz qismi (2,3-2,4%) mayda, sezilarli qismi (19,5-21,8%) esa katta gullarga ega bo'lishi qayd etildi.

Urchitish jarayonida yarim doira qalam gul tipidagi qo'ylarning ishtirok etishi mayda gulli qo'zilar salmog'ining ikki baravar, o'rta gulli qo'zilar salmog'ining ma'lum darajada (1,4-3,7%) ko'paytishiga, katta gulli qo'zilar salmog'ining 4,2-5,5 foizga kamayishiga olib kelishi aniqlandi. Bu muhim seleksion ahamiyatga ega holat hisoblanadi va undan ushbu ko'rsatkichni yaxshilashga qaratilgan urchitish ishlarida foydalanish samarali hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda turli juftlash variantlarida gul o'lchamlarining avlodlarda namoyon bo'lish darajalari o'rganilib, olingan natijalar 3-jadvalda umumlashtirilgan.

3-jadval

Avlodlarning gul kengligi

Juftlash varianti	n	Avlodlarning gul kengligi bo'yicha taqsimlanishi, % ($\bar{X} \pm S\bar{x}$)		
		mayda	o'rta	katta
Yassi x Yassi	123	2,4±1,38	78,2±3,72	19,5±3,57
Yassi x Yarim doira qalamgul	118	5,1±2,03	79,6±3,71	15,3±3,31
Yassi x Qovurg'asimon	87	2,3±1,61	75,9±4,59	21,8±4,43
Yassi x O'sikgul	50	-	70,0±4,0	30,0±4,0

Yassi tipli qo'ylarni urchitishda olingan avlodlarda gul kengligini o'rganish natijalari ko'rsatadiki, ularning aksariyat qismining (75,9-79,6%) gullarning kengligi bo'yicha o'rta o'lchamiga ega bo'lganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Yusupov S. Yu va boshqalar Qorako'lchilikda naslchilik ishini yuritish va qo'zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma. Toshkent 2015y
2. Gaziev A., Yusupov S. Yu., Fazilov U. T. Селекционные основы повышения эффективности селекции черных каракулских овец. // «Cho'l-yaylov chorvachiligi va ozuqa etishtirish muammolari» QCHEITning 85 yilligiga bag'ishlangan halqaro ilmiy-amal. konf. materiallari. Samarqand. 2015. 51-55.
3. Mamatov B. S., Gaziev A. Sur qorako'l qo'zilar jun – tola uzunligining ota – onalar gul tipi bilan bog'liqligi. “Cho'l – yaylov chorvachiligini rivojlantirish va cho'llanishning oldini olishning ilmiy amaliy asoslari” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2019. 43-44 b.